

CHATGPT: SUN'IY INTELLEKTNING YANGI BOSQICHI. DASTURNING CHEKLANMAGAN IMKONIYATLARI VA JIDDIY SALBIY TA'SIRLARI

Salimova Oltinoy

TDTU 1-kurs talabasi.

Tursunmetov Ibodulla

TDTU gistologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda barchamiz uchun eng yaxshi "ustoz" ga aylangan sun'iy intellekt dasturi - ChatGPTning imkoniyatlari, va jiddiy xavflari haqida gap boradi. U inson hayotiga qay darajada xavf tug'dirmoqda? Undan foydalanishda nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim? Undan oqilona foydalanib bilimimizni oshirishimiz, ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimiz mumkinligini juda yaxshi bilamiz. Shu bilan bir qatorda undan shunchaki bemaqsad foydalanib vaqtni befoyda sarflayotganlar ham kam emas. Ammo eng yomoni dasturdan o'zi istamagan holda zarar ko'rayotganlar ham yo'q emas!


Kalit so'zlar. Sun'iy intellekt (AI), ChatGPT, OpenAI, ijodiy fikrlash, xohishga qarab javoblar, noto'g'ri tashxislar, sun'iy intellektning salbiy ta'sirlari

Kirish. Bugungi kunda sun'iy intellekt inson hayotining turli jabhalarida mustahkam o'rin egallamoqda. Ayniqsa, OpenAI kompaniyasi tomonidan yaratilgan ChatGPT kabi til modellari o'quv, tibbiyot, turli kasblar, dasturlash va boshqa sohalarda katta yordam bermoqda. ChatGPT OpenAI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning birinchi versiyasi 2018-yilda GPT-1 sifatida taqdim etilgan. 2019-yilda GPT-2, 2020-yilda GPT-3, 2023-yilda esa GPT-4 versiyalari chiqdi. Har bir yangi model o'zidan oldingisiga qaraganda ancha kuchliroq va tushunish qobiliyati yuqoriroq.

Asosiy qism. Bugungi kunda ChatGPT turli tillarda gaplasha oladi va juda murakkab vazifalarni bajarishga qodir. ChatGPT ko'p sohalarda yordam berishi mumkin: Talimda u istalgan savollarga javob berishi, insholar yozishi, ilmiy tushunchalarni soddalashtirishi mumkin. Tibbiyotda simptomlar bo'yicha umumiy ma'lumot berish qobiliyatiga ega. Dasturlash tizimlarida kod yozish, xatoliklarni topish, algoritmlarni tushuntirish ishlarini amalga oshiradi. Ijodkorlikda she'r, hikoya, ssenariy yozish,

suhbatlar yaratishi mumkin. Matnlarni bir tildan boshqasiga tarjima qila oladi. Shaxsiy yordamchi sifatida reja tuzish, maslahat berish, muammolarni yechishga qodir. Uning foydali tomonlariga keladigan bo'lsak, tez va oson javoblar beradi. Talim va o'qishga katta ko'mak beradi, ko'p tilda ishlay oladi. Doimiy charchamaydi, 24/7 ishlaydi. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham bor!


ChatGPT ayrim hollarda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, uydirma yoki noto'liq ma'lumotlarni ham aniq ishonch bilan taqdim etishi mumkin.



Bu ayniqsa, tibbiyot, huquq, tarix yoki ilmiy izlanish kabi aniqlik talab qilinadigan sohalarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Inson fikriga o'xshab ko'rinsa-da, u his qilmaydi va mas'uliyat olmaydi. Ko'pgina insonlar kasallikni boshlang'ich simptomlarida shifokorga murojaat qilishdan ko'ra ChatGPT dan yordam so'rashni ma'qulroq ko'rmoqdalar. Lekin ushbu sun'iy intellekt har doim ham to'g'ri javob bermasligini inobatga olish zarur. Mutaxassislar tomonidan u shunday programmashtirilganki, u bilmagan narsasini taxminiy javoblar orqali taqdim etadi, kasallik simptomlariga qarab noto'g'ri dori vositalarini qat'iy ravishda ishonch bilan tavsiya qilishi mumkin. Agar bu haqida bir necha bor takroran so'ralsa, u yana bir necha xilda turlicha javoblar berishi

mumkin. Shunday qilib noto'g'ri qo'llanilgan dori vositalari, noo'rin tashxislar , va kechiktirilgan muolajalar inson hayotiga jiddiy xavf solishi turgan gap. Ayniqsa, ongologik kasalliklarda bu yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Afsuski bu hali hammasi emas.

Qalampir.uz saytining xabar berishicha Amerikalik Sharlotta ismli ayol, chatGPT ni yoqtirib qolib, eri bilan ajrashishga qaror qildi. Ha, ha to'g'ri eshitdingiz, ChatGPT ni yoqtirib qolib! Buning asosiy sababi ChatGPT ga insonning fikri, xohishiga qarab javoblarni taqdim etish qobiliyatidir. Vaholanki bu xato fikr bo'lsa ham u o'z foydalanuvchilarini saqlab qolish uchun ularning xohishiga ko'ra maslahat va ma'lumotlar beradi.



...Bundan tashqari ko'plab maktab o'quvchilari, talabalar har bir jabha, har bir savol va topshiriqlarda undan yordam so'rayotgani, va vazifalarni u orqali bajarayotgani uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyati pasayishi yuz bermoqda . Hattoki juda oddiy vaziyatlarda ham fikrlashni istashmayapti. Chunki ularning o'rnida tezroq fikrlaydigan sun'iy intellekt mavjud...

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, OpenAI kompaniyasi tomonidan yaratilgan uchbu sun'iy intellekt cheklanmagan miqdordagi imkoniyatlarga ega, u biz uchun ustoz,

ko‘makchi, motivator, bilim manbayi payti kelganda yaxshi maslahatchi bola olishi mumkin, shunchaki undan to‘g‘ri va oqilona foydalanish zarur. Turmushda ishlatiladigan pichoq orqali meva sabzavotlarni to‘g‘rab shirin ovqatlar, shirinliklar tayyorlash mumkin. Lekin shu bilan birga undan noto‘g‘ri foydalanish qotilliklar, va turli jinoyatlar yo‘lida qurbon bo‘lishga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday ekan har bir narsadan to‘g‘ri foydalanaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaswani, A. et al. (2017). Attention is All You Need. NeurIPS Conference Paper.
2. Radford, A. et al. (2018). Improving Language Understanding by Generative Pre-Training. OpenAI.
3. Brown, T. et al. (2020). Language Models are Few-Shot Learners. arXiv:2005.14165.
4. OpenAI (2023). GPT-4 Technical Report.
5. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
6. Qalampir.uz
7. UzEdu.uz
8. Wikipedia.org